



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




No8(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 50 sahifa,
12-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Role of English Collocations, Idiomatic Expressions, and Phraseological Units in Developing Communicative Competence in Higher Education.....	10
Alimov Jamshid Ravshanovich	
Milliy xoslangan lisoniy birliklarni teglash tamoyillari	16
Yorkulov Zafarjon Bakirovich	
Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlari	20
Vaydulla Madinabonu Muxtasam qizi	
O'qituvchilar darslarni qanday qiziqarli tashkil etishlari mumkin?.....	26
Dilnura Rustamovna Xamrayeva	
Tarbiya texnologiyasi – talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirish omili sifatida.....	33
Mamadaliyev Kamolidin Rahmatullayevich	
Maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishning psixologik omillari.....	40
Rahmatova Nasiba Sobirovna	
Umumta'lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini sinfdan tashqari faoliyat orqali takomillashtirishning pedagogik-metodik tizimi.....	46
Urinbayeva Dilfuza Abdumannobovna	

MAKTAB DIREKTOR MASLAHATCHILARIDA STRATEGIK BOSHQARUV TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Rahmatova Nasiba Sobirovna

Navoiy innovatsiyalar universiteti,
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası dotsenti,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Orcid: 0009-0001-5314-3457

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishga ta'sir etuvchi psixologik omillar ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Strategik tafakkurning shakllanishida kognitiv moslashuvchanlik, refleksiv fikrlash, emotsional intellekt, kasbiy motivatsiya, innovatsion yondashuv, kelajakni prognoz qilish qobiliyati hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish kompetensiyalarining o'zni yoritiladi. Shuningdek, ta'lim muassasalarida samarali boshqaruvni ta'minlashda direktor maslahatchilarining strategik fikrlash salohiyatini rivojlantirishning psixologik mexanizmlari hamda ularni qo'llab-quvvatlovchi omillar tizimli ravishda asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan psixologik rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish hamda rahbarlik faoliyatining samaradorligini oshirish uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: strategik boshqaruv tafakkuri, direktor maslahatchisi, psixologik omillar, refleksiya, kognitiv moslashuvchanlik, emotsional intellekt, boshqaruv kompetensiyasi, kasbiy motivatsiya, strategik qaror, ta'lim menejmenti.

Abstract: This article examines the psychological factors that contribute to the development of strategic management thinking among school principals' advisors from both theoretical and practical perspectives. Particular attention is given to the roles of cognitive flexibility, reflective thinking, emotional intelligence, professional motivation, innovative orientation, future-oriented reasoning, and managerial decision-making competencies in strengthening strategic thinking. The study also explains the psychological mechanisms that support the formation of long-term managerial perspectives and adaptive leadership within educational institutions. The findings provide a scientific foundation for designing psychological development programs aimed at enhancing strategic management thinking and improving the effectiveness of advisory activities in school leadership.

Key words: strategic management thinking, school principal's advisor, psychological factors, cognitive flexibility, reflective thinking, emotional intelligence, managerial competence, professional motivation, strategic decision-making, educational leadership.

Аннотация: В данной статье рассматриваются психологические факторы, способствующие развитию стратегического управленческого мышления у советников директоров школ. Исследование раскрывает значение когнитивной гибкости, рефлексивного мышления, эмоционального интеллекта, профессиональной мотивации, инновационной направленности, способности к прогнозированию и компетентности в принятии управленческих решений для формирования стратегического мышления. Особое внимание уделяется психологическим механизмам, обеспечивающим развитие долгосрочного управленческого видения и повышение эффективности профессиональной деятельности советников директора. Полученные результаты могут служить научно-практической основой для разработки программ психологического сопровождения и совершенствования стратегических управленческих компетенций в системе общего среднего образования.

Ключевые слова: стратегическое управленческое мышление, советник директора школы, психологические факторы, когнитивная гибкость, рефлексия, эмоциональный интеллект, управленческая компетентность, профессиональная мотивация, стратегическое решение, образовательный менеджмент.

KIRISH

XXI asrda ta'lim tizimining rivojlanishi nafaqat moddiy-texnik resurslar yoki normativ-huquqiy islohotlar bilan, balki ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan rahbar va ularning maslahatchilarining strategik fikrlash salohiyati bilan ham chambarchas bog'liqdir. Global raqobat, raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt texnologiy-



yalarining jadal rivojlanishi hamda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning tezkor o'zgarishi ta'lim boshqaruvida an'anaviy yondashuvlardan strategik boshqaruv modeliga o'tishni taqozo etmoqda. Bunday sharoitda maktab direktor maslahatchilari nafaqat mavjud muammolarni hal etuvchi mutaxassis, balki istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini oldindan ko'ra oladigan, boshqaruv qarorlarini ilmiy asosda tahlil qiladigan hamda innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlaydigan strategik hamkor sifatida faoliyat yuritishi zarur.

Maktab direktor maslahatchilarining kasbiy faoliyati ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlash, jamoada sog'lom psixologik muhitni shakllantirish, pedagoglarning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va boshqaruv qarorlarining sifatini oshirish kabi ko'plab vazifalarni qamrab oladi. Mazkur vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish strategik boshqaruv tafakkurining rivojlanganlik darajasiga bevosita bog'liq. Strategik tafakkur esa qisqa muddatli vazifalarni bajarish bilangina cheklanmay, uzoq muddatli istiqbolni rejalashtirish, ehtimoliy xavf va imkoniyatlarni oldindan baholash, murakkab vaziyatlarda muqobil qarorlarni ishlab chiqish hamda tashkilot rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni tizimli tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

Psixologiya fanida strategik tafakkur shaxsning intellektual salohiyati, refleksiv qobiliyatlari, analitik fikrlashi, emotsional barqarorligi, motivatsion yo'nalganligi va ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyalarining o'zaro integratsiyasi natijasida shakllanuvchi murakkab psixik hodisa sifatida qaraladi. Ayniqsa, boshqaruv faoliyatida strategik tafakkurning rivojlanishi kognitiv moslashuvchanlik, noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish qobiliyati, kelajakni modellashtirish, tizimli fikrlash hamda o'z faoliyatini refleksiv tahlil qilish ko'nikmalari bilan uzviy bog'liqdir. Shu sababli direktor maslahatchilarining psixologik resurslarini aniqlash va ularni rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish ilmiy-amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda ta'lim menejmentida inson omilining ustuvorligi tobora kuchayib bormoqda. Boshqaruv samaradorligi endilikda faqat tashkiliy yoki ma'muriy imkoniyatlar bilan emas, balki rahbarlar va ularning maslahatchilarining psixologik tayyorgarligi, moslashuvchan fikrlashi, emotsional intellekti, innovatsion faoliyatga ochiqqligi hamda o'zgarishlarni boshqarish kompetensiyalari bilan ham belgilanmoqda. Ayniqsa, strategik qarorlarning muvaffaqiyati qaror qabul qiluvchi shaxsning psixologik tayyorgarligi va kelajakni ilmiy prognoz qilish salohiyatiga bevosita bog'liqdir.

Maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurining rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar orasida ichki motivatsiya, kasbiy identifikatsiya, refleksiya, emotsional intellekt, stressga chidamlilik, kreativ fikrlash, kognitiv moslashuvchanlik, mas'uliyat hissi, liderlik salohiyati va samarali kommunikatsiya alohida o'rin egallaydi. Mazkur omillar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning uyg'un rivojlanishi strategik qarorlar sifatini, boshqaruv jarayonining barqarorligini hamda ta'lim tashkilotining uzoq muddatli rivojlanish istiqbollari belgilaydi.

Bugungi kunda strategik boshqaruv bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, maktab direktor maslahatchilarining strategik boshqaruv tafakkurini aynan psixologik nuqtayi nazardan kompleks o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishlanmalar yetarli darajada shakllanmagan. Aksariyat tadqiqotlar rahbarlarning boshqaruv kompetensiyalariga yoki strategik rejalashtirish texnologiyalariga qaratilgan bo'lib, direktor maslahatchilarining shaxsiy-psixologik resurslari hamda strategik fikrlashni rivojlantirish mexanizmlariga nisbatan ilmiy tahlillar cheklangan.

Mazkur tadqiqotning maqsadi maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy psixologik omillarni aniqlash, ularning o'zaro bog'liqligini ilmiy asoslash hamda strategik boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning samarali psixologik mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot natijalari ta'lim menejmentida zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini takomillashtirish, direktor maslahatchilarining kasbiy salohiyatini oshirish va ta'lim muassasalarining strategik rivojlanishini ta'minlashga xizmat qilishi kutiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Strategik boshqaruv tafakkuri zamonaviy boshqaruv psixologiyasi va ta'lim menejmentining eng muhim ilmiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Strategik boshqaruvning nazariy asoslarini ishlab chiqishda H. Mintzberg, I. Ansoff va M. Porterning ilmiy qarashlari muhim o'rin tutadi.

Xususan, H. Mintzberg strategik tafakkurni faqat rejalashtirish bilan cheklamasdan, vaziyatni yaxlit anglash, tajribani tahlil qilish va istiqboldagi imkoniyatlarni oldindan ko'ra bilish bilan bog'laydi.

I. Ansoff strategik boshqaruvda uzoq muddatli maqsadlarni belgilash va tashqi muhitdagi o'zgarishlarga moslashish masalalariga alohida e'tibor qaratgan. M. Porter esa strategik qarorlarni shakllantirishda tashqi muhit, mavjud imkoniyatlar va raqobat omillarini tizimli tahlil qilishning ahamiyatini asoslab bergan.

Boshqaruv nazariyasining rivojlanish tarixida strategik tafakkurning mohiyatini izohlashga turli ilmiy maktablar o'z hissasini qo'shgan. Dastlabki tadqiqotlarda strategiya asosan tashkilotning uzoq muddatli maqsadlarini belgilash va ularga erishish vositalarini tanlash jarayoni sifatida talqin qilingan bo'lsa, keyinchalik strategik boshqaruv inson kapitali, psixologik resurslar va innovatsion salohiyat bilan bog'liq murakkab boshqaruv

modeli sifatida o'rganila boshlandi. P. Drucker boshqaruv samaradorligini tashkilot maqsadlarini aniq belgilash, mas'uliyatli qaror qabul qilish va kelajakdagi o'zgarishlarga tayyor turish bilan bog'lagan. Natijada strategik tafakkur faqat rejalashtirish emas, balki vaziyatni kompleks tahlil qilish, istiqbolni modellashirish va o'zgarishlarga moslashish kompetensiyasi sifatida baholandi.

Psixologik yondashuvlarda strategik tafakkurning rivojlanishi, avvalo, shaxsning kognitiv imkoniyatlari bilan izohlanadi. J. Piagetning kognitiv rivojlanish haqidagi qarashlari shaxsning yangi axborotni o'zlashtirishi va o'zgaruvchan sharoitlarga intellektual moslashishini tushuntirishda muhim nazariy asos hisoblanadi.

A. Bandura esa shaxsning faoliyati, ijtimoiy muhit va kognitiv jarayonlarning o'zaro ta'siriga alohida e'tibor qaratadi. Kognitiv moslashuvchanlik yuqori bo'lgan rahbar va maslahatchilar yangi vaziyatlarga tez moslashadi, muammolarni turli nuqtayi nazardan baholaydi va muqobil yechimlarni ishlab chiqishda yuqori natijalarga erishadi.

Refleksiv yondashuv strategik boshqaruv tafakkurining yana bir muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. D. Schön professional faoliyatda refleksiyaning ahamiyatini asoslab, mutaxassisning o'z tajribasi va faoliyatini muntazam tahlil qilishi kasbiy rivojlanishning muhim mexanizmi ekanligini ta'kidlagan. Refleksiya shaxsning o'z fikrlash jarayonlarini, qabul qilgan qarorlarini va ularning natijalarini tahlil qilish imkonini beradi. Direktor maslahatchisining refleksiv salohiyati kuchli bo'lsa, u o'z faoliyatidagi kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlaydi, tajribani umumlashtiradi va kelgusidagi boshqaruv faoliyatini takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

So'nggi yillarda emotsional intellekt strategik boshqaruvning psixologik omili sifatida keng tadqiq etilmoqda. P. Salovey va J. Mayer emotsional intellektni hissiyotlarni anglash, baholash va boshqarish bilan bog'liq qobiliyatlar tizimi sifatida izohlagan.

D. Goleman esa emotsional intellektning liderlik va boshqaruv faoliyatidagi ahamiyatiga alohida e'tibor qaratgan. Emotsional intellekti rivojlangan mutaxassislar o'z hissiyotlarini boshqara oladi, jamoa a'zolarining emotsional holatini to'g'ri baholaydi, nizolarni konstruktiv yo'l bilan hal qiladi hamda ishonchli kommunikatsiyani shakllantiradi.

Ilmiy adabiyotlarda kasbiy motivatsiya ham strategik fikrlashni rivojlantirishning muhim determinantlaridan biri sifatida qayd etiladi. E. Deci va R. Ryan tomonidan ishlab chiqilgan o'z-o'zini belgilash nazariyasida ichki motivatsiya shaxsning mustaqil faoliyati, kompetentligini rivojlantirishi va kasbiy maqsadlarga intilishining muhim psixologik manbai sifatida ko'rsatilgan. Ichki motivatsiyaga ega bo'lgan direktor maslahatchilari kasbiy faoliyatni shaxsiy rivojlanish vositasi sifatida qabul qiladi, yangiliklarni faol o'zlashtiradi va uzoq muddatli natijalarga yo'naltirilgan qarorlarni qabul qilishga intiladi.

Ta'lim menejmentiga oid tadqiqotlarda strategik boshqaruv kompetensiyasi tizimli fikrlash, liderlik, kommunikativ kompetentlik va o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarining integratsiyasi sifatida talqin qilinadi. M. Fullan ta'lim tizimidagi o'zgarishlarni samarali boshqarishda rahbarning strategik qarashlari, hamkorlikni yo'lga qo'yishi va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashi muhimligini ta'kidlaydi. Direktor maslahatchisining asosiy vazifasi faqat rahbar topshiriqlarini bajarish emas, balki boshqaruv jarayonlarini tahlil qilish, rivojlanish istiqbollari prognoz qilish, ehtimoliy xavflarni oldindan baholash va rahbarning strategik qarorlarini psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Innovatsion faoliyatni boshqarishga bag'ishlangan tadqiqotlarda strategik tafakkurning kreativlik bilan uzviy bog'liqligi ta'kidlanadi. J. Guilford kreativ tafakkurni muammoning turli yechimlarini ishlab chiqish imkonini beruvchi divergent fikrlash bilan bog'lagan.

E. de Bono esa nostandart yechimlarni izlashga asoslangan lateral fikrlash konsepsiyasini rivojlantirgan. Ushbu qarashlar direktor maslahatchilarida mavjud stereotiplardan chekinish, muammolarga yangicha yondashish va istiqbolli g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyatlarini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, ilmiy manbalarda psixologik barqarorlik va stressga chidamlilik strategik qarorlar sifati bilan bevosita bog'liq ekanligi qayd etiladi. R. Lazarusning stress va kopingga oid nazariy qarashlarida shaxsning murakkab vaziyatlarni qanday baholashi va ularga qanday moslashishi psixologik barqarorlikning muhim omili sifatida ko'rsatiladi. Murakkab boshqaruv vaziyatlarida emotsional barqarorlikni saqlab qolgan mutaxassislar vaziyatni xolis baholash, resurslarni oqilona taqsimlash va muammolarni konstruktiv hal etishda yuqori natijalarni namoyon etadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, H. Mintzberg, I. Ansoff, P. Drucker, D. Schön, P. Salovey, J. Mayer, D. Goleman, E. Deci, R. Ryan, M. Fullan, J. Guilford va R. Lazarus kabi olimlarning ilmiy qarashlari strategik boshqaruv tafakkurining turli jihatlarini yoritishga xizmat qiladi. Ularning tadqiqotlari asosida strategik boshqaruv tafakkurini kognitiv moslashuvchanlik, refleksiya, emotsional intellekt, kasbiy motivatsiya, kreativlik, psixologik barqarorlik, kommunikativ kompetentlik va liderlik salohiyatining o'zaro uyg'unlashuvi natijasida shakllanadigan ko'p komponentli psixologik tuzilma sifatida baholash mumkin.

Shu bilan birga, maktab direktor maslahatchilarining strategik boshqaruv tafakkuriga ta'sir etuvchi psixologik determinantlarni kompleks o'rganish mazkur yo'nalishdagi dolzarb ilmiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishga ta'sir etuvchi psixologik omillar o'rganildi. Tadqiqotda nazariy tahlil, psixologik diagnostika, so'rovnoma, kuzatish hamda matematik-statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Olingan natijalar asosida kognitiv moslashuvchanlik, refleksiv fikrlash, emotsional intellekt va kasbiy motivatsiyaning strategik boshqaruv tafakkuri bilan o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Empirik tadqiqot natijalari maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurining rivojlanishi birgina kasbiy tajriba bilan emas, balki bir-biri bilan uzviy bog'langan psixologik omillar majmui bilan belgilanishini ko'rsatdi. Statistik tahlillar strategik boshqaruv tafakkurining shakllanishida kognitiv moslashuvchanlik, refleksiv fikrlash, emotsional intellekt va kasbiy motivatsiya eng muhim determinantlar ekanligini tasdiqladi. Mazkur omillar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash maqsadida Pearson korrelyatsiya tahlili amalga oshirildi (2-jadval).

2-jadval: **Strategik boshqaruv tafakkuri va psixologik omillar o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik (Pearson r, n = 72)**

Psixologik omillar	Strategik boshqaruv tafakkuri (r)	p
Kognitiv moslashuvchanlik	0,74	<0,001
Refleksiv fikrlash	0,69	<0,001
Emotsional intellekt	0,65	<0,001
Kasbiy motivatsiya	0,71	<0,001
Strategik rejalashtirish kompetensiyasi	0,78	<0,001

Korrelyatsion tahlil natijalari strategik boshqaruv tafakkuri bilan barcha o'rganilgan psixologik omillar o'rtasida statistik jihatdan ishonchli va ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Eng yuqori korrelyatsiya strategik rejalashtirish kompetensiyasi ($r = 0,78$) bilan kuzatildi. Bu natija uzoq muddatli maqsadlarni aniq belgilash, ehtimoliy xavflarni oldindan baholash va rivojlanish istiqbollarini prognoz qilish qobiliyati strategik tafakkurning asosiy tarkibiy qismi ekanligini tasdiqlaydi.

Kognitiv moslashuvchanlikning yuqori korrelyatsiya ko'rsatkichi ($r = 0,74$) direktor maslahatchilarining yangi sharoitlarga tez moslashishi va muammolarni turli nuqtayi nazardan tahlil qila olishi strategik qarorlar sifatiga bevosita ta'sir qilishini ko'rsatdi. Zamonaviy ta'lim tizimida islohotlar uzluksiz davom etayotganligi sababli aynan moslashuvchan fikrlash strategik boshqaruvning muhim psixologik resursi hisoblanadi.

Kasbiy motivatsiya bilan aniqlangan kuchli bog'liqlik ($r = 0,71$) strategik tafakkurning shakllanishida ichki motivatsiyaning yetakchi rolini namoyon etdi. O'z kasbiy rivojlanishiga mas'uliyat bilan yondashadigan direktor maslahatchilari tashabbuskorlikni ko'proq namoyon etishi, innovatsion g'oyalarni ilgari surishi va boshqaruv qarorlarining istiqbolini chuqurroq tahlil qilishi kuzatildi. Bu holat motivatsion omillar strategik boshqaruv samaradorligini ta'minlovchi muhim psixologik mexanizmlardan biri ekanligini ko'rsatadi.

Refleksiv fikrlashning strategik tafakkur bilan o'rtacha yuqori darajadagi bog'liqligi ($r = 0,69$) direktor maslahatchilarining o'z faoliyatini tanqidiy baholash, xatolarni tahlil qilish va tajribadan xulosa chiqarish qobiliyatlari strategik rivojlanishga xizmat qilishini tasdiqladi. Refleksiya strategik qarorlarning sifatini oshirish bilan bir qatorda, boshqaruv faoliyatida doimiy o'zini rivojlantirish ehtiyojini ham shakllantiradi.

Emotsional intellekt va strategik tafakkur o'rtasidagi ijobiy bog'liqlik ($r = 0,65$) rahbarlik faoliyatida hissiy barqarorlik va samarali muloqotning muhimligini ko'rsatdi. Direktor maslahatchisi pedagogik jamoa, ota-onalar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan muntazam hamkorlik qilgani sababli emotsional boshqarish, empatiya va konstruktiv kommunikatsiya strategik qarorlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Olingan natijalar strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirish faqat nazariy bilimlarni oshirish orqali emas, balki psixologik kompetensiyalarni izchil rivojlantirish orqali samarali bo'lishini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, direktor maslahatchilarining malaka oshirish dasturlariga refleksiv treninglar, strategik vaziyatlarni modellash-tirish, muammoli vaziyatlar tahlili (case study), liderlik treninglari, emotsional intellektni rivojlantirish mashg'ulotlari va kreativ fikrlash texnologiyalarini kiritish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot natijalari, shuningdek, strategik boshqaruv tafakkurining integrativ psixologik modelini shakllantirish imkonini berdi. Mazkur modelga ko'ra, kasbiy motivatsiya strategik rivojlanishga ichki ehtiyojni yuzaga keltiradi, kognitiv moslashuvchanlik yangi vaziyatlarni tahlil qilish imkonini yaratadi, refleksiv fikrlash qabul qilingan qarorlarni takomillashtiradi, emotsional intellekt esa boshqaruv jarayonining ijtimoiy-psixologik samaradorligini ta'minlaydi. Ushbu komponentlarning uyg'un rivojlanishi natijasida strategik rejalashtirish kompetensiyasi mustahkamlanadi va direktor maslahatchisining strategik boshqaruv tafakkuri yuqori bosqichga ko'tariladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari maktab direktor maslahatchilarining strategik boshqaruv faoliyatini takomillashtirishda psixologik omillarning hal qiluvchi o'rin tutishini ko'rsatdi. Strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan psixologik-pedagogik dasturlarni ishlab chiqish, refleksiv va analitik kompetensiyalarni kuchaytirish hamda motivatsion muhitni qo'llab-quvvatlash ta'lim tashkilotlarining uzoq muddatli rivojlantirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur natijalar nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy boshqaruv tizimida direktor maslahatchilarining kasbiy salohiyatini rivojlantirish uchun ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishning psixologik omillarini nazariy va empirik jihatdan o'rganishga bag'ishlandi. Tadqiqot natijalari strategik boshqaruv tafakkuri alohida psixologik sifat emas, balki kognitiv, motivatsion, emotsional va refleksiv komponentlarning o'zaro uyg'unlashuvi natijasida shakllanadigan murakkab integrativ kompetensiya ekanligini ko'rsatdi. Direktor maslahatchilarining strategik faoliyat samaradorligi aynan ushbu psixologik resurslarning rivojlanganlik darajasiga bevosita bog'liq ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Nazariy tahlillar strategik boshqaruv tafakkurining zamonaviy ta'lim menejmentida innovatsion rivojlanish, o'zgarishlarni boshqarish, uzoq muddatli rejalashtirish va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishning asosiy omillaridan biri ekanligini tasdiqladi. Tadqiqot davomida strategik boshqaruv tafakkuri shaxsning kelajakni prognoz qilish qobiliyati, tizimli fikrlashi, analitik yondashuvi, refleksiv salohiyati va emotsional barqarorligi bilan uzviy bog'liq ekanligi aniqlandi.

Empirik natijalar strategik boshqaruv tafakkurining rivojlanishida strategik rejalashtirish kompetensiyasi, kognitiv moslashuvchanlik va kasbiy motivatsiya eng kuchli psixologik determinantlar ekanligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, refleksiv fikrlash hamda emotsional intellektning yuqori darajada rivojlanganligi direktor maslahatchilarining murakkab boshqaruv vaziyatlarini chuqur tahlil qilishi, pedagogik jamoa bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishi va strategik qarorlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga xizmat qilishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari asosida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishning konseptual psixologik modeli taklif etildi. Mazkur modelga ko'ra, kasbiy motivatsiya strategik rivojlanish ehtiyojini shakllantiradi, kognitiv moslashuvchanlik muammolarni ko'p variantli tahlil qilish imkonini yaratadi, refleksiya boshqaruv faoliyatini uzluksiz takomillashtirishga xizmat qiladi, emotsional intellekt esa boshqaruv jarayonlarining ijtimoiy-psixologik samaradorligini ta'minlaydi. Ushbu komponentlarning integratsiyasi strategik boshqaruv tafakkurining barqaror rivojlanishiga olib keladi.

Amaliy nuqtayi nazardan, tadqiqot natijalari maktab direktor maslahatchilarining malakasini oshirish tizimini takomillashtirish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, malaka oshirish dasturlariga strategik fikrlashni rivojlantirish treninglari, refleksiv tahlil mashg'ulotlari, boshqaruv vaziyatlarini modellashtirish, kreativ muammolarni hal etish texnologiyalari, emotsional intellektni rivojlantirish dasturlari hamda strategik qaror qabul qilish bo'yicha amaliy seminarlarni kiritish tavsiya etiladi. Bunday yondashuv direktor maslahatchilarining kasbiy kompetentligini mustahkamlash, boshqaruv qarorlarining sifatini oshirish va ta'lim tashkilotlarining barqaror rivojlanishiga ko'maklashadi.

Shuningdek, ta'lim tizimida strategik boshqaruv madaniyatini shakllantirish uchun direktor maslahatchilarining psixologik tayyorgarligini muntazam diagnostika qilish, individual rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish va psixologik konsultativ xizmatlarni takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Bu nafaqat boshqaruv samaradorligini oshiradi, balki ta'lim muassasasida sog'lom psixologik muhit, innovatsion faoliyat va jamoaviy hamkorlikni rivojlantirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kelgusidagi ilmiy izlanishlarda strategik boshqaruv tafakkurining raqamli transformatsiya sharoitidagi rivojlanish xususiyatlari, sun'iy intellekt texnologiyalarining boshqaruv qarorlariga ta'siri, direktor maslahatchilarining strategik liderlik kompetensiyalari hamda strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishning psixologik trening texnologiyalarini eksperimental sinovdan o'tkazish istiqbolli yo'nalishlar sifatida e'tirof etiladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirish ta'lim sifatini oshirish, boshqaruv tizimini takomillashtirish va ta'lim muassasalarining uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlashning muhim psixologik sharti ekanligini tasdiqlaydi. Strategik tafakkurga ega direktor maslahatchisi zamonaviy ta'lim muassasasining innovatsion rivojlanishida faol ishtirok etuvchi, ilmiy asoslangan boshqaruv qarorlarini ishlab chiquvchi va jamoaning umumiy maqsadlarga yo'naltirilgan faoliyatini samarali muvofiqlashtiruvchi mutaxassis sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida: Farmon. - Toshkent, 2022.



2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston - 2030 strategiyasi to'g'risida: Farmon. - Toshkent, 2023.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. - Toshkent: Adolat, 2020.
4. O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuni. - Toshkent, 2024.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2021. - 464 b.
6. Yukl G. Leadership in Organizations. - 9th ed. - New York: Pearson, 2020. - 576 p.
7. Northouse P.G. Leadership: Theory and Practice. - 9th ed. - Thousand Oaks: Sage Publications, 2022. - 560 p.
8. Robbins S.P., Judge T.A. Organizational Behavior. - 19th ed. - Harlow: Pearson, 2023. - 720 p.
9. Daft R.L. Management. - 14th ed. - Boston: Cengage Learning, 2022. - 688 p.
10. Mintzberg H. Understanding Organizations... Finally! Structuring in Sevens. - San Francisco: Berrett-Koehler Publishers, 2023. - 240 p.
11. Goleman D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. Anniversary Edition. - New York: Bantam Books, 2020. - 352 p.
12. Kahneman D., Sibony O., Sunstein C.R. Noise: A Flaw in Human Judgment. - New York: Little, Brown Spark, 2021. - 464 p.
13. Edmondson A.C. The Right Kind of Wrong: The Science of Failing Well. - New York: Atria Books, 2023. - 368 p.
14. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. - 6th ed. - New York: Teachers College Press, 2020. - 360 p.
15. Hargreaves A., Fullan M. Professional Capital: Transforming Teaching in Every School. - New York: Teachers College Press, 2021. - 240 p.
16. Bush T. Theories of Educational Leadership and Management. - 5th ed. - London: Sage Publications, 2020. - 232 p.
17. OECD. Education Policy Outlook 2023: Strengthening Resilient Education Systems. - Paris: OECD Publishing, 2023.
18. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2024: Leadership in Education for Sustainable Development. - Paris: UNESCO Publishing, 2024.
19. OECD. Education at a Glance 2024: OECD Indicators. - Paris: OECD Publishing, 2024.
20. UNESCO. Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. - Paris: UNESCO Publishing, 2021.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.